Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEKANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI	1142
Muydinov Erkin Djamaldinovich	



AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI

Muydinov Erkin Djamaldinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, i.f.n, dotsent

ORCID: 0009-0001-6412-1368

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadbirkorlik subyekti tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda “Hisobot sanasidan keyingi hodisalar” deb nomlangan 10-sonli Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti talablariga rioya etilganlik darajasini “Hisobot sanasidan keyingi hodisalar” deb nomlangan 560-sonli Auditning xalqaro standartlari asosida auditorlik tekshiruvidan o’tkazish uslubiyoti yoritish maqsad qilib olingan.

Kalit so’zlar: hisobot sanasidan keyingi hodisalar, faoliyat uzluksizligi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, auditning xalqaro standartlari.

Abstract. This article highlights the methodology for auditing compliance with the requirements of International Financial Reporting Standard No. 10 “Events after the reporting date” by business entities when preparing financial statements, based on International Auditing Standard No. 560 “Events after the reporting date.”

Key words: events after the reporting date, going concern, international financial reporting standards, international auditing standards.

Аннотация. В данной статье освещена методика аудита выполнения требований Международного стандарта финансовой отчетности № 10 «События после отчетной даты» субъектами предпринимательства при подготовке финансовой отчетности на основе Международного стандарта аудита № 560 «События после отчетной даты».

Ключевые слова: события после отчетной даты, непрерывная деятельность, международные стандарты финансовой отчетности, международные стандарты аудита.

KIRISH

Hisobot sanasidan keyingi hodisalar, shu nomdagi 10-sonli Moliyaviy hisobotning xalqaro standartiga (MHXS) ko’ra, hisobot davri tugagan sana bilan moliyaviy hisobotlarni e’lon qilish uchun tasdiqlash sanasi o’rtasidagi oraliqda yuzaga kelgan ijobiy yoki salbiy hodisalardir (2). Audit amaliyoti uchun bu davr “Hisobot sanasidan keyingi hodisalar” deb nomlangan 560-sonli Auditning xalqaro standartiga (AXS) ko’ra:

- moliyaviy hisobot sanasi va auditorlik xulosasi sanasi oralig’ida sodir bo’ladigan hodisalarni;
- auditorlik xulosasi sanasidan keyin, biroq moliyaviy hisobotni e’lon qilish sanasigacha auditorga ma’lum bo’lgan hodisalarni;
- moliyaviy hisobot e’lon qilinganidan keyin auditorga ma’lum bo’lgan hodisalarni o’z ichiga oladi (3).

Bunda 560-sonli AXSning 5a-bandiga ko’ra, moliyaviy hisobot sanasi deganda moliyaviy hisobot o’z ichiga olgan oxirgi davrning yakuniy sanasi tushuniladi. Mazkur standartning 5g-bandiga ko’ra, moliyaviy hisobotlarni e’lon qilish sanasi — audit tekshiruvidan o’tkazilgan moliyaviy hisobotlar va auditorlik xulosasi bilan barcha foydalanuvchilar tanishishi uchun imkoniyat yuzaga kelgan sanadir. Davlat sektori bilan bog’liq holda, moliyaviy hisobotni e’lon qilish sanasi audit qilingan moliyaviy hisobot va auditorlik xulosasi qonunchilik organiga taqdim etilgan yoki boshqa yo’l bilan e’lon qilingan sana bo’lishi mumkin.

“Moliyaviy hisobotlar to’g’risida fikr hosil qilish va xulosa berish” deb nomlangan 700-sonli (qayta ko’rib chiqilgan) AXSning 49-bandida auditorlik xulosasi sanasi — auditor moliyaviy hisobot bo’yicha bildirilgan auditor fikri uchun asos bo’lgan yetarlicha va tegishli auditorlik dalillari olingan sana deb qayd etilgan (4).



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro audit amaliyotida hisobot sanasidan keyingi hodisalarni baholash audit jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri sifatida ko'riladi. Professional adabiyotlarda bu jarayonning metodologik asoslari va auditorlik mas'uliyati chuqur o'rganilgan. Arens, Elder va Beasley tomonidan yozilgan fundamental tadqiqotlarda auditor moliyaviy hisobot sanasi bilan auditorlik xulosasi sanasi orasida sodir bo'ladigan barcha muhim voqealarni aniqlashi, ularning moliyaviy hisobotga ta'sirini baholashi va zarur bo'lsa, mijozdan tuzatish yoki ochiqlashni talab qilishi lozimligi ta'kidlanadi. Ularning fikricha, bu davr "keyingi voqealarni tekshirish oynasi" bo'lib, auditorning professional skeptitsizmi aynan shu bosqichda eng yuqori darajada bo'lishi talab etiladi.

Hayes, Wallage va Gortemaker xalqaro audit standartlari amaliyotini tahlil qilar ekan, ISA 560 talablarining auditorlar uchun ikki bosqichli yondashuvni belgilab berishini qayd etadi: birinchisi — audit xulosasi sanasigacha sodir bo'lgan voqealarni aniqlash, ikkinchisi — xulosa berilgandan so'ng auditorning zimmasiga tushadigan mas'uliyatni belgilash. Ularning ilmiy yondashuvida audit xulosasi berilgandan keyingi davrda aniqlangan sezilarli xatoliklar auditorni mijoz bilan hamkorlikda tuzatish kiritishga yoki xabar berish jarayonlarini boshlashga majbur qilishini ko'rsatadi.

Knechel va Salterio tomonidan chop etilgan ilmiy ishlarda keyingi hodisalar audit riskga asoslangan yondashuvning ajralmas elementi sifatida talqin qilinadi. Ular auditorning asosiy vazifasi — firmaning aktivlari, majburiyatlari yoki daromadlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan hodisalarni aniqlash va ularning raqamli ifodasini baholash ekanini ilmiy asoslaydilar. Shu bilan birga, ular kompaniyalar ko'pincha keyingi hodisalarni to'liq ochiqlashga moyil bo'lmaliklarini, auditor esa bu bosqichda qo'shimcha audit dalillari to'plashga majbur bo'lishini ta'kidlaydi.

DeFond va Zhang audit sifatiga bag'ishlangan yirik meta-tahlilida keyingi hodisalar audit moliyaviy hisobotlarning ishonchlilik darajasini oshiruvchi asosiy mexanizmlardan biri ekanini ko'rsatadi. Ularning tadqiqotlari bo'yicha, kuchli korporativ boshqaruvga ega korxonalarda auditorlar tomonidan aniqlanadigan keyingi voqealar soni kamroq bo'ladi, bu esa ichki nazoratning samaradorligini anglatadi. Aksincha, risk darajasi yuqori bo'lgan tashkilotlarda ISA 560 bo'yicha qo'shimcha audit amallarining ahamiyati yanada ortadi.

Messier, Glover va Prawitt audit dalillarining ishonchliliigi bo'yicha tadqiqotlarida auditorning keyingi hodisalarni aniqlash jarayoni bevosita korxona rahbariyati bilan olib boriladigan so'rovlar, yuridik xizmatlar bilan muloqotlar, balansdan keyingi operatsiyalarni tahlil qilish va bank tasdiqlari kabi dalillarga tayangan holda amalga oshirilishini asoslaydi. Ularning tahliliga ko'ra, keyingi voqealarni o'tkazib yuborish audit sifati pasayishining eng keng tarqalgan sabablaridan biridir.

Shuningdek, Wu, Hsu va Haslam tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda auditorlarning keyingi hodisalarni aniqlashdagi xatolari ko'pincha korxonaning moliyaviy qiyinchiliklari, aktivlarning qadrsizlanishi yoki majburiyatlarning oshib ketishini vaqtida aks ettirmaslikka olib kelishi isbotlangan. Ularning empiric ma'lumotlari auditorning bu bosqichda yetarli darajada sinchkovlik ko'rsatishi audit xulosasining qiymati va ishonchliliigini sezilarli oshirishini ko'rsatadi.

Ushbu ilmiy izlanishlar audit jarayonida keyingi hodisalarni baholash nafaqat texnik talab, balki auditorlik kasbining yadro funksiyalaridan biri ekanini yorqin tasdiqlaydi. Xalqaro standartlar tizimi (ISA) aynan shu bosqichda auditorning yuridik mas'uliyati, kasbiy etikasi va mustaqilligini ta'minlash uchun aniq ko'rsatmalar beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hisobot sanasidan keyingi hodisalar moliyaviy hisobotga ta'sir etish xususiyatiga ko'ra:

a) ijobiy yoki salbiy hodisalar;

b) moliyaviy hisobotni tuzatishni yoki unda ochib berishni talab qiluvchi hodisalarga guruhlanadi.

Ahamiyatga molik bo'lgan hisobot sanasidan keyin yuz bergan hodisalar kompaniya biznesiga ijobiy yoki salbiy ta'siridan qat'i nazar, hisobot yilining moliyaviy hisobotida aks ettirilishi lozim. Aks ettirish moliyaviy hisobotni tuzatish yoki ularni batafsil ochib berish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Moliyaviy hisobotni tuzatishni talab qiluvchi, hisobot tuzish sanasidan keyin aniqlangan hodisalar qatoriga kompaniyaning yirik debitori hisobot tuzish sanasiga qadar inqirozga uchraganligi haqidagi ma'lumotning kelib tushishi, tadbirkorlik subyekting hisobot davri yakunida joriy majburiyati mavjudligini tasdiqlagan sud ishining keyinchalik hal bo'lishi, hisobot davri oxirida aktiv qadrsizlanganini yoki ilgari tan olingan zarar summasiga tuzatish kiritish zarurligini ko'rsatuvchi axborotning hisobot tugaganidan keyin olinishi, shuningdek hisobot davri tugallanishidan oldin sotib olingan aktivlarning tannarxi yoki sotilgan aktivlardan tushgan tushumning keyinchalik aniq bo'lishi kiradi. Tadbirkorlik subyekti hisobot davri oxirigacha yuz bergan hodisalar natijasida to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha joriy yuridik yoki konstruktiv majburiyatga ega bo'lganini ko'rsatadigan,



hisobotdan keyin yuzaga chiqqan to'lovlar yoki mukofotlar summalarining aniqlanishi ham tuzatish kiritilishi lozim bo'lgan holatlarga mansubdir. Shuningdek, moliyaviy hisobotlarning noto'g'ri ekanini bildiruvchi firibgarlik yoki xatolar aniqlansa, bu ma'lumot ham tegishli tuzatishlar kiritishni talab qiladi. Shu sababli, tadbirkorlik subyekti bunday hodisalarni aks ettirish maqsadida moliyaviy hisobotlarda tan olingan summalarga majburiy ravishda tuzatish kiritadi.

Tuzatish talab qilmaydigan, faqat moliyaviy hisobotda ochib berilishi lozim bo'lgan hodisalar esa, masalan, hisobot davridan keyin amalga oshirilgan yirik biznes birlashuvi yoki yirik sho'ba subyekting chiqib ketishi, ta'sischilar tomonidan kompaniya faoliyatini davom ettirmaslik rejasi e'lon qilinishi yoki katta miqdordagi aktivlarning sotib olinishi singari holatlardir. Shuningdek, uzoq muddatli aktivlarning bir qismini sotish uchun mo'ljallangan aktivlar guruhiga o'tkazilishi, aktivlarning boshqa yo'l bilan chiqib ketishi yoki davlat tomonidan yirik aktivlarning musodara qilinishi, kompaniya tayyor mahsulot omborida yong'in natijasida katta zarar ko'rilishi kabi holatlar ham ochiq qilinishi lozim bo'lgan axborotlar sirasiga kiradi. Kompaniya rahbariyati tomonidan yirik restrukturizatsiya rejasining e'lon qilinishi yoki uning amalga oshirilishi boshlanganligi, hisobotdan keyin oddiy aksiyalar bilan bog'liq yirik moliyaviy muomalalarning amalga oshirilishi, aktivlar narxлари yoki valyuta kurslarida favqulodda katta o'zgarishlarning kuzatilishi ham shu toifaga mansubdir. Shuningdek, soliq stavkalari yoki soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar joriy va muddati uzaytirilgan soliq aktivlari hamda majburiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, bu axborot ham ochib berilishi zarur. Kafolat xatlarining taqdim qilinishi orqali yirik majburiyatlar yoki shartli majburiyatlarning olingani, shuningdek hisobot davridan keyingi hodisalar oqibatida yirik sud jarayonining boshlanishi ham moliyaviy hisobotda ochib berilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar qatoriga kiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

560-sonli AXSga asosan mazkur yo'nalishda auditorning maqsadlari moliyaviy hisobot sanasi va auditorlik xulosasi sanasi oralig'ida sodir bo'lgan, moliyaviy hisobotda tuzatish kiritishni yoki ochib berishni talab etadigan hodisalar moliyaviy hisobotlarni tuzishda qo'llaniladigan asosga muvofiq to'g'ri aks ettirilganini tasdiqlash uchun yetarlicha tegishli auditorlik dalillarini olishdan iborat bo'ladi. Shuningdek, auditor auditorlik xulosasi sanasidan keyin unga ma'lum bo'lgan va agar ular auditor tomonidan ko'rib chiqilgan sanada ma'lum bo'lganida auditorlik xulosasini o'zgartirishga olib kelishi mumkin bo'lgan faktlar bo'yicha zarur harakatlarni amalga oshirishi lozim.

Auditor mazkur davrda sodir bo'lgan va moliyaviy hisobotda tuzatish kiritilishini yoki ochib berilishini talab etadigan barcha hodisalar aniqlangani xususida yetarli auditorlik dalillarini olish maqsadida tegishli tartib-taomillarni bajaradi. Bunday tartib-taomillar qatoriga auditorlik tekshiruv o'tkazilayotgan kompaniya rahbariyatiga hisobot sanasidan keyin yuqoridagi mazmundagi hodisalar yuz berganligi haqidagi rasmiy so'rov yuborish, hisobot sanasidan keyin o'tkazilgan ta'sischilar yig'ilishlari, direktorlar kengashi, taftish komissiyasi va ijro organlari a'zolari yig'ilishlari bayonnomalarini o'rganish, huquq-tartibot va nazorat qiluvchi idoralar tomonidan o'tkazilgan tekshiruv yoki monitoring natijalari bilan tanishish, kompaniyaning huquqshunosidan kompaniyaga nisbatan qo'zg'atilgan yoki kompaniya tomonidan kontragentlarga nisbatan bildirilgan da'volar bo'yicha olib borilayotgan yirik sud jarayonlari va mavjud nizolar haqida batafsil rasmiy ma'lumot olish kiradi.

Shu bilan birga, yillik moliyaviy hisobotga qadar tuzilgan so'nggi oraliq moliyaviy hisobotni tahlil qilish, kompaniyaning sug'urta tashkiloti bilan hisobot tuzish sanasiga sug'urta to'lovi summasini aniqlashtirish bo'yicha muzokaralar natijalari haqida ma'lumot so'rash, yirik miqdorda qarz yoki kredit olish, shuningdek, boshqa shaxslar olgan katta miqdordagi qarzlarga kafolat berish bo'yicha tuzilgan hujjatlarni o'rganish ham auditor tomonidan bajariladigan muhim tartib-taomillar sirasiga kiradi.

Amaliyotda keng qo'llaniladigan tartib-taomillardan biri 500-sonli AXSning A22 hamda 560-sonli AXSning A9 bandlariga muvofiq mijoz kompaniya rahbariyatidan "rasmiy so'rov" olishdir. Uning namunaviy shakli 1-jadvalda keltirilgan bo'lib, auditorlik dalillarini to'plash jarayonida muhim vosita sifatida e'tirof etiladi (1-jadval).

1-jadval. MCHJ "Profi audit" auditorlik tashkiloti Xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariga hisobot sanasidan keyingi hodisalar to'g'risida rasmiy so'rov¹

Mijoz:	"Sharq" aksiyadorlik jamiyati				
Shartnoma:	11.03.2025 y № 03-2025	Bajaruvchi:	Mamatxonov M	Tugatildi:	14.05.2025 y
Audit o'tkazilayotgan davr	01.01.2024 y- 31.12.2024 y	Tekshiruvchi:	Maraziqov M	Tekshirildi:	15.05.2025 y

1 Muallif ishlanmasi



Tr	Savollar	Javob		Javob “Ha” bo’lganda izoh
		Ha	Yo’q	
1	Hisobot sanasidan keyin, hisobotda debitorlar tarkibida aks ettirilgan, lekin hisobot tuzish sanasiga inqirozga uchragan kontragent to’g’risida malumot olingan holatlar mavjudmi?			
2	Hisobot sanasidan keyin, aksiyadorlik jamiyati aksiyalari kotirovkasini keskin pasayishi yoki o’sishi yuz bermadimi?			
3	Hisobot sanasidan keyin yirik biznes birlashuvi yoki yirik shuba tadbirkorlik subyekting chiqib ketishi yuz bermadimi?			
4	Hisobot sanasidan keyin, yirik aktivlarni sotilishi yoki bunday xo’jalik muomalasini amalga oshirilishini rejalashtirilishi yuz bermadimi?			
5	Hisobot sanasidan keyin uqisobot davri oxirida aktivni qadrsizlanganligidan dalolat beradigan ma’lumot olinmadimi?			
6	Hisobot sanasidan keyin, ustav kapitalini sezilarli tarzda ызgarishi, yangi aksiyalar yoki qarz majburiyatlari bo’yicha qimmatli qog’ozlarni chiqarilishi, korxonani qayta tuzilishi yoki tugatilishi bo’yicha xarakatlar amalga oshirilmadimi?			
7	Hisobot sanasidan keyin davlat tomonidan jamiyat mulkini olib qo’yilishi, yoki favqulodda vaziyatlar (yong’in, zilzila, suv toshqini...) ta’sirida ularga ziyon yetish holatlari yuz bergani yo’qmi?			
8	Hisobot davridan keyin aktivlar narxлари yoki valyuta ayriboshlash kurslaridagi g’ayrioddiy darajadagi katta o’zgarishlar yuz berdimi?			
9	Hisobot sanasidan keyin hisobot davrida va ayniqsa hisobot davrining oxirida noan’anaviy buxgalteriya o’tkazmalari rasmiylashtirilganligi holatlari aniqlandimi?			
10	Kafolat xatlarini taqdim qilish orqali kompaniya tomonidan zimmasiga yirik majburiyatlar yoki shartli majburiyatlarni olinishi yuz bermadimi?			
11	vxx Hisobot sanasidan keyin etiborga loyiq bo’lgan yirik shartli aktiv(lar) va (yoki) shartli majburiyat(lar) yuzaga kelgani yo’qmi?			
12	vxx ...			

Hisobot sanasidan keyin sodir bo’lgan hodisalar tarkibiga 2019-yilning oxiri va 2020-yil boshidan boshlab butun dunyo hamda mamlakatimizda koronavirus COVID-19 pandemiyasining yuzaga kelishi ham kiradi. Mazkur hodisa aksariyat korxona va tashkilotlarning iqtisodiy va ijtimoiy yo’nalishlardagi faoliyatiga jiddiy talafot yetkazdi. Ayrim biznes turlari, jumladan, havo va temir yo’l transportida yo’lovchi hamda yuk tashish, sayohat va turizm, mehmonxona xizmatlari va ko’ngilochar soha korxonalari davom etayotgan pandemiya sharoitida hatto o’z faoliyatini butunlay to’xtatdi yoki sezilarli darajada qisqartirdi. COVID-19 pandemiyasi auditorlik faoliyatiga ham ta’sir ko’rsatib, audit ko’lamining kengayishi, tekshiruvlarning chuqurlashishi, muddatlarning uzayishi va masofaviy audit amaliyotining joriy etilishiga sabab bo’ldi. Shu bois auditor audit jarayonida kompaniya rahbariyati va (yoki) korporativ boshqaruv uchun mas’ul shaxslar tomonidan mazkur hodisaning biznesning uzluksizligi, kelgusi moliyaviy natijalar, pul oqimlari, moliyaviy holat va moliyaviy hisobotga ko’rsatadigan ta’sirini baholash bo’yicha amalga oshirgan ishlari sifatini o’rganishi zarur bo’ladi. Chunki moliyaviy hisobotlar, odatda, tadbirkorlik subyekti faoliyatini davom ettirishga qodir va kelgusida ham uzluksiz ishlashini nazarda tutuvchi faraz asosida tayyorlanadi. Agar tadbirkorlik subyekti faoliyatni tugatish yoki u hajmini keskin qisqartirish zarurati mavjud bo’lsa, moliyaviy hisobotlar boshqa asosda tayyorlanadi va ushbu asos alohida ochib beriladi.

Bu holat 10-sonli MXSning 14–15-bandlarida belgilangan bo’lib, ularga ko’ra hisobot davri tugaganidan keyin tadbirkorlik subyekti rahbariyati subyektni tugatish, savdo faoliyatini to’xtatish yoki boshqa chora qolmaganligini aniqlasa, moliyaviy hisobotlar “faoliyatning uzluksizligi” tamoyiliga asoslanmagan holda tuzilishi shart bo’ladi. Agar ushbu tamoyildan foydalanish o’rinsiz ekani aniqlansa, bu ta’sir shu darajada keng bo’ladiki,



hisobning avvalgi asosida tan olingan summalarga tuzatish kiritish emas, balki buxgalteriya hisobining asosini tubdan o'zgartirish talab qilinadi.

Xalqaro standartlar asosida auditorlik tekshiruvini o'tkazishda auditor alohida e'tibor qaratishi zarur bo'lgan yo'nalishlardan yana biri mijoz kompaniya tomonidan moliyaviy hisobotni tayyorlash jarayonida shartli aktiv, shartli majburiyat, shartli zarar va shartli foydalarni tan olish hamda ularni ochib berish talablariga rioya qilinganligini baholashdan iboratdir. "Rezervlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar" deb nomlangan 37-sonli MXSning 10-bandida shartli majburiyat bo'lib o'tgan hodisalardan kelib chiqishi mumkin bo'lgan majburiyat sifatida ta'riflanadi. Bunday majburiyatning mavjudligi tadbirkorlik subyekti nazoratida bo'lmagan kelgusi noaniq hodisalar sodir bo'lishi yoki sodir bo'lmasligiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, u hozirgi paytdagi majburiyat bo'lishi ham mumkin, biroq tan olinmaydi, chunki majburiyatni bartaraf etish uchun resurslarning chiqib ketishi ehtimoli yo'q yoki majburiyat summasini ishonchli baholab bo'lmaydi.

Shartli aktiv esa bo'lib o'tgan hodisalardan kelib chiqishi mumkin bo'lgan va mavjudligi kelgusi noaniq hodisalarning sodir bo'lishiga bog'liq bo'lgan aktivdir. Bu yo'nalish bo'yicha moliyaviy hisobotga ma'lumotlarni kiritish yoki ularni ochib berish bilan shug'ullanuvchi xodimlar ham, auditorlar ham shartli majburiyat, shartli aktiv, shartli zarar va shartli foydalarni tan olish mezonlarini to'g'ri qo'llashlarini ta'minlashlari kerak. Moliyaviy hisobot Konseptual asoslarining 4.44-bandida aktiv kelgusi iqtisodiy naf keltirishi ehtimoli bor va uning tannarxi yoki qiymatini ishonchli baholash mumkin bo'lganda tan olinishi belgilangan. Ushbu hujjatning 4.46-bandiga ko'ra, majburiyat hozirgi paytdagi majburiyatni bajarish natijasida iqtisodiy resurslar chiqib ketishi ehtimoli mavjud bo'lsa va so'ndiriladigan summani aniq baholash mumkin bo'lsa tan olinadi.

Shartli zarar keltirilgan zarar miqdorini ishonchli baholash mumkin bo'lganida va kelgusi hodisalar balans sanasida aktivning qadrsizlanganini yoki yangi majburiyat yuzaga kelganini tasdiqlasa, xarajat va majburiyat sifatida tan olinadi. Shartli foyda esa moliyaviy hisobotda daromad yoki aktiv sifatida tan olinmaydi, chunki uni aniq hisoblash mumkin bo'lsa, u shartli bo'lmay qoladi va odatiy tartibda tan olinadi. Shartli majburiyat, shartli aktiv, shartli zarar va shartli foyda bo'yicha buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot nuqtayi nazaridan qo'llaniladigan qarorlar algoritmi 2-chizmada ko'rsatilgan (2-jadval).

2-jadval. Shartli majburiyat, shartli aktiv, shartli zarar va shartli foydani tan olish tartibi²

	O'lchash imkoni mavjud bo'lgan holatda	O'lchash imkoni mavjud bo'lmagan holatda
Shartli zarar	Ehtimoli mavjud — zarar va majburiyatlar hisoblanadi va hisobotda aks ettiriladi	Zarar va majburiyatlar hisoblanmaydi, lekin moliyaviy hisobotda ochib beriladi
	Ehtimoli mavjud emas — hisoblanishi va ochib berilishi shart emas	
Shartli foyda	Ehtimoli mavjud — shartli foyda sifatida tan olinmaydi	Hisoblanmaydi va hisobotda ham ochib berilmaydi
	Ehtimoli mavjud emas — ochib berish ham tavsiya etilmaydi	
Shartli majburiyat	Ehtimoli mavjud — zaxira tashkil qilinadi	Zaxira tashkil qilinmaydi, hisobotda ochib beriladi
	Ehtimoli mavjud emas — zaxira ham tashkil qilinmaydi, ochib berish tavsiya etilmaydi	
Shartli aktiv	Ehtimoli juda yuqori bo'lganda — moliyaviy hisobotda ochib beriladi	Hech qanday yozuvga yo'l qo'yilmaydi

560-sonli AXSning 10-bandiga ko'ra, auditor auditorlik xulosasi sanasidan keyin moliyaviy hisobotlarga nisbatan hech qanday auditorlik tartib-taomillarini bajarishi mumkin emas. Chunki amaldagi AXSga ko'ra, auditorlik xulosasi imzolangan sanadan keyin tekshirilgan moliyaviy hisobotga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar haqida auditorga axborot berish mas'uliyati mijoz korxona rahbariyatiga yuklatiladi.

Biroq, agar auditorlik xulosasi sanasidan keyin, lekin moliyaviy hisobotni e'lon qilish sanasiga qadar auditor, auditorlik xulosasi sanasida o'ziga ma'lum bo'lganida, auditorlik xulosasini o'zgartirishga turtki berishi mumkin bo'lgan biron-bir fakt aniqlansa, auditor quyidagi harakatlarni bajarishi lozim:

a) mazkur masalani tadbirkorlik subyekti rahbariyati va zarur holda boshqaruv yuklatilgan shaxslar bilan muhokama qilish;

b) moliyaviy hisobotga biron-bir tuzatish kiritish zarurligi yoki zarurligini aniqlash;

d) tadbirkorlik subyekti rahbariyatidan bu masalani moliyaviy hisobotda qanday aks ettirish niyatida ekanini aniqlash.



Auditor tadbirkorlik subyekti rahbariyati va zarur holda boshqaruv yuklatilgan shaxslardan AXS 580ga muvofiq, moliyaviy hisobot sanasidan keyin sodir bo'lgan, moliyaviy hisobotni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosga muvofiq tuzatish yoki ochib berishni talab etadigan barcha hodisalar tuzatilgani yoki ochib berilgani haqida yozma bayonot talab qilishi lozim.

Agar tadbirkorlik subyekti rahbariyati moliyaviy hisobotga tuzatish kiritisa, auditor mazkur tuzatishlar bo'yicha kerakli auditorlik tartib-taomillarini bajarishi va tuzatishlar kiritilgan moliyaviy hisobot bo'yicha yangi yoki tuzatilgan auditorlik xulosasini taqdim etishi shart. Bunda yangi auditorlik hisoboti (xulosasi) tuzatishlar kiritilgan moliyaviy hisobot tasdiqlangandan keyingi sanadan oldin taqdim etilishi mumkin emas.

Agar auditorlik xulosasi bilan tasdiqlangan moliyaviy hisobot foydalanuvchilarga taqdim qilingan sanadan keyin tuzatishni talab qiluvchi hodisalar aniqlansa, lekin kompaniya rahbariyati ilgari e'lon qilingan moliyaviy hisobotni olgan shaxslarni yuzaga kelgan vaziyat haqida xabardor qilish choralari ko'rmayotgan bo'lsa va auditor moliyaviy hisobotni qayta ko'rib chiqish zarur deb hisoblagan holda kompaniya buni bajarmayotgan bo'lsa, auditor tadbirkorlik subyekti rahbariyati va boshqaruv yuklatilgan shaxslarni uchinchi shaxslarni ogohlantirish choralari ko'rish zarurligi haqida xabardor qilishi lozim.

Agar tadbirkorlik subyekti rahbariyati yoki boshqaruv yuklatilgan shaxslar ushbu ogohlantirishlarga qaramay zarur choralarni ko'rmasa, auditorning o'zi auditorlik hisoboti (xulosasi)ga tayanish mumkin emasligi haqida tegishli shaxslarga xabar berishi lozim. Biroq bunday vaziyatda auditor o'z harakatlarini auditorlik tashkilotining yuridik maslahatchisi bilan muhokama qilgan holda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi doirasidan chiqmagan tarzda amalga oshirishi kerak.

Hisobot sanasidan keyin yuz bergan muhim hodisalar kompaniya faoliyatiga ijobiy yoki salbiy ta'siridan qat'i nazar, moliyaviy hisobotda ochib berilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hisobot sanasidan keyin yuz bergan hodisalar o'zining ko'lami va muhimlik darajasidan kelib chiqib auditor tomonidan taqdim etiladigan auditorlik xulosasining shakliga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ularning moliyaviy hisobotga ta'sir kuchini aniqlagan holda, tekshiruv natijalariga ko'ra auditor quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

- modifikatsiya qilinmagan fikr bildiradi;
- agar auditor hisobot sanasidan keyin yuz bergan va moliyaviy hisobotning to'g'ri tuzilganligiga shubha tug'diruvchi biror hodisa (masalan, faoliyatning uzluksizligi masalasi) to'g'risida yetarli auditorlik daliliga ega bo'lsa, ushbu holatni asoslagan holda modifikatsiya qilingan auditorlik fikrini bildirishi lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасида аудиторлик фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги № 3946-сонли қарори, Тошкент, 19.09.2018 й.
2. "Ҳисобот санасидан кейинги ҳодисалар" номли 10-сонли МҲХС. URL: <http://www.mf.uz>
3. "Ҳисобот санасидан кейинги ҳодисалар" номли 560-сонли АХС. URL: <http://www.mf.uz>
4. «Молиявий ҳисоботлар тўғрисида фикр ҳосил қилиш ва хулоса бериш» номли 700-сонли (қайта кўриб чиқилган) АХС. URL: <http://www.mf.uz>
5. "Ёзма баёнотлар" номли 580-сонли АХС. URL: <http://www.mf.uz>
6. "Аудиторлик далиллари" номли 500-сонли АХС. URL: <http://www.mf.uz>
7. https://studref.com/324565/buhgalterskiy_uchet_i_audit/sobytiya_otchetnoy_daty
8. https://studme.org/115105136661/buhgalterskiy_uchet_i_audit/auditorskaya_proverka_spetsialnym_auditorskim_zadaniyam
9. AF-Audit rasmiy sayti. URL: <https://af-audit.ru/>
10. Arens A., Elder R., Beasley M. Auditing and Assurance Services. – Pearson, 2017.
11. Hayes R., Wallage P., Gortemaker H. Principles of Auditing: An Introduction to International Standards on Auditing. – Pearson Education, 2014.
12. Knechel W. R., Salterio S. Auditing: Assurance and Risk. – Routledge, 2016.
13. DeFond M., Zhang J. A review of archival auditing research. Journal of Accounting and Economics. – Elsevier, 2014.
14. Messier W., Glover S., Prawitt D. Auditing and Assurance Services: A Systematic Approach. – McGraw-Hill, 2017.
15. Wu J., Hsu Y., Haslam J. The role of auditors in identifying post-balance-sheet events. Accounting and Business Research. – Taylor & Francis, 2016.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>